

ISAJON SULTONNING “MA’SUMA” ROMANIDA KOMPOZITSION VOSITALARI VA TAHLILI

*Mardiyeva Xurshida Bahromjon qizi,
Guliston davlat universiteti
O’zbek filologiyasi yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotation

Ushbu maqolaning bosh mavzusi o’zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo’lgan Isajon Sultanning o’zbek nasri rivojiga munosib hissa qo’shgan “Ma’suma” badiiy asarining kompozitsion tuzilishi hamda syujetining o’ziga xosligi, tasvir vositalari hisoblanadi. Maqolada badiiy asar kompozitsiyasi, kompozitsion (arxitektonik) vositalar – sarlavha, peyzaj, interyer, lirk kirish, chekinish, xotima, muallif nutqi, personajlar nutqi keltirib o’tilgan.

Kalit so‘zlar: arxitektonika, kompozitsion vositalar, syujet, lirk kirish, chekinish, xotima, sarlavha, interyer, peyzaj, muallif nutqi, hikoyachi nutqi.

Annotation

The main topic of this article is the compositional structure and originality of the plot of the artistic work “Ma’suma” by Isajon Sultan, one of the bright representatives of Uzbek literature, which made a significant contribution to the development of Uzbek prose. The composition of an artistic work, compositional (architectural) tools – title, landscape, interior, lyrical introduction, retreat, conclusions are mentioned in the article.

Key words: architecture, compositional tools, plot, lyric introduction, retreat, conclusion, title, interior, landscape, exposition, author’s speech, characters’ speech.

Isajon Sultan tili o’ziga xos – u poetik, falsafiy va teran. Muallif tasvirlari obrazli, ruhiyat tahlillari chuqur va ta’sirchan. Uning yaqin yillarda yaratilgan “Ma’suma” romanı ham real shaxslarga, mavjud ijtimoiy hayot tasviriga asoslanib, yaratilgan. Asar kompozitsiyasida badiiy niyat asosiga ko’ra kompozitsuiya hamda syujet unsurlari asar to‘qimasida joylashgan. Chunonchi, “Ma’suma” romanida quyidagi bir qancha kompozitsion (arxitektonik) vositalarni uchratishimiz mumkin: Asar sarlavhasi – ba’zida badiiy asarning mazmun-mohiyati bilan bevosita bog’liq bo’ladi. “Ma’suma” – asar nomi asarning bosh qahramoni Ma’suma Qoriyevaning ismidan olingan. Roman qahramonining hayoti bilan birga o’tgan asrning boshi, ayovsiz qatag‘on siyosati yillari qalamga olinadi.

Lirk kirish: “Mavjud jannatlarning eng go’zalida, Eng go’zal malika atirlar sochdi. Ko’klarning eng nozli, o’ynoq parisi Atir qutisining og’zini ochdi”... Lirk kirish yozuvchi maqsadi asosida personajlarning ruhiy kayfiyatini, kechinmalarini lirk usullar yordamida ko’rsatib ergan. Asar mazmuni yangicha kasb etgan, qahramonlar hissiy yo’l yordamida ta’rif-tavsif etilgan. Asar ekspozitsiyasidan o’rin olgan ushbu satrlar ko’klam tarovatini

yanada ochib berish, bahorgi ruhiyatdagi yengillik, soflik kabi bir qancha vazifalarni bajargan. Shu bilan birga ayni paytda muallifning qahramonlarga bo‘lgan ijobiy munosabati ham singdirib yuborilgan.

Lirik chekinish: “O‘ynoq qizcha, erkin-erkin o‘ynab ol, Erta-indin erking qo‘ldan ketadir. Erkalanib, bir-ikki kun quvnab qol Erka ko‘ngling hasratlarga botadir..”. Istiora – erkli qizcha orqali juda ham chiroyli manzara ochib berilgan. Asarning o‘sha o‘rinlaridagi ta’sirchanlikni oshirish, estetik zavq berish maqsadida keltirilgan satrlar asar mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qilgan.

Peyzaj: “Qizg‘aldoqlar madrasalar tomida, shag‘al to‘kilgan yerlar, ko‘cha-ko‘ylar chetida ungan. Bu yerda yana, salomalik o‘tlari va ajriq ham bor. Eski Jo‘vadan chapga yurilsa, past-baland ko‘chalari qing‘ir-qiyshiq uzayib ketgan eski mahalla keladi, arava zo‘rg‘a siqqulik ko‘cha tomonga bolaxonalar chiqib qolgan. Tomlar bir-biriga tutash, to mahalla adog‘igacha tomma-tom borsa bo‘ladi” . Peyzaj asar muhitiga olib kirishda muhim kompozitsion vosita hisoblangan. Tasvir orqali muallif o‘zining tabiatga, atrof-muhitga bo‘lgan hissiy ifodalarini ko‘rsata olgan. Tabiat manzarasini chizish orqali bahor kayfiyati, asar voqeligiga to‘g‘ri kirib bormasdan o‘quvchini asar muhitiga moslashtirishdagi ekspozitsiyasi berib o‘tilgan. Yozuvchi aynan bahor faslining tasviri orqali ekspozitsiyaga kirib borarekan, Ma‘sUMANING ham estetik holatini, tarivotini hissiyotlarini birgina shu tasvir yordamida ko‘rsatgan.

Interyer: “Hovli keng, katta daraxtlarga to‘la. Yong‘oq, shotut, olcha – hammasidan bor. Hovlining ikki tomoni sinchli bo‘g‘ot imoratlar, ulardan birinchisi eshik va derazalariga naqsh o‘yilgan mehmonxona, so‘ng oshxonha, oshliq va anjomxona. Hovli sahniga g‘isht terilgan. Bir tomonida kichikkina ariq ochib o‘tgan, ariq labida yalpiz, rayhonlar ungan. Ichkariga kirib, xonani ko‘zdan kechirdi: torgina, bir stol-stul, bir yotoq qo‘yilgan oddiygina bo‘lma. Burchakda “burjuya” pechka, ichida cho‘g‘ lang‘illab turibdi, pechka yonidagi paqirga ko‘mir to‘ldirilib qo‘yilibdi “.

Obrazlari harakatlanadigan joy-maydon ham muhim g‘oyaviy ahamiyatga molik hisoblanadi. Bu yerda interyer asarning mohiyatini konkretlashtirishga, kengaytirishga, obrazlarni hayotiy tasvirlashga bevosita yordam bergenini keltirishimiz mumkin. Tasvirdan yaqqol ma’lumki, hovli egasi o‘ziga yetarlicha to‘q, boy-badavlat, nozik didli kishi. Hovlining kengligi, g‘isht yotqizilganligi, imoratlarning naqshlar bilan zarilganligi buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Xonadonda XX asr boshlarida kamyob, taqchil hisoblangan “burjuya” pechkasining mavjudligi, ko‘mir ham yonida ekanligi personajni boy, o‘ziga ancha to‘q ekanligiga urg‘u berish uchun ham ishlatilgan.

Yozuvchi asar davomida oddiy, sodda tasvirlar orqali ham ma’lum bir “yuk” tashiy olgan. Asarning boshlanmasi tosh yo‘llar, tomlari bir-biriga ulanib ketgan kichkina uylar XX asr boshlaridagi aholining ijtimoiy ahvolini ochiq ko‘rsatib bera olgan. “Ma’suma” da qahramonlarning portretlari ham nozik did bilan bo‘y ko‘rsatgan. Misol uchun: Katta oyi – oltmishlardan oshgan, to‘ladan kelgan ayol. Barmoqlarida qo‘sha-qo‘sha uzuklar, katta-

kichik yig‘inlarga doim moshrang yoki to‘q moviy duxoba paranji yopinib boradi, har kim bilan o‘z qadrini saqlab, og‘ir-bosiq so‘zlashadi. Shahri azimda bir nechta xotingina xo‘tanning nofa mushkini sepati, ana o‘shalardan biri – Katta oyi. O‘ziga xos tasvir vositalari yordamida Katta oyining, obro‘sni, e‘tiborini, ayni paytda badavlat ekanligi ifoda etilgan. Va bularning barchasi Katta oyining xarakterlovchi xususiyatlari bo‘lib ish bajargan.

Asar matnida muallif nutqi orqali asosiy voqealar, holatlar tasvirlanadi. Personajlar nutqi ham syujet matniga ko‘rk berib, jonlantiradi. Obrazlar o‘zaro muloqotida turli xil leksik unsurlardan unumli foydalanishgan. Ular vositasida muallif o‘sha davr muhitini yoritgan va o‘quvchiga ham bu sezilib turganini ko‘rishimiz mumkin. Shunisi e‘tiborlikii, yuqoridagilar asarning o‘qishlilagini taminlashda alohida xizmat qilgan. Chunonchi, eskirgan so‘zlar:

- Bu yil tariq ekkan edik, *mirobiningiz* suvni bog‘lab olibdi;
- Og‘aning rejalari mo‘l, Hamzaxonning “Boy ila *batrak*” tomoshasini ham qo‘ymoqchi bo‘lib yuribdi;
- Boy, hozir *mirim* ham yo‘q;

Ular Buxoro yetakchilari bilan kengashib, Buxoro jadid taraqqiyparvarlar *firqasini* tuzadilar; Bir mahallar u kishi O‘rusiyaning Davlat *dumasiga* a‘zolikka saylangan edilar.

Neologizmlar: Ma‘suma bolalik chog‘ida otasi bilan ko‘chma *teatrga* tomoshasini ko‘rganini aytdi; Qoriyev Botirxon Bositovich 13-armiya tarkibidagi 280-o‘qchi diviziyaning 1031-o‘qchi polki *minomyot* batariyasida *vzvod komandir* bo‘lib xizmat qilgan; Semizdan semiz kishilar, tilla zanjirlar, naqshli kitoblar va yana xoch surati, undan tepada esa gullab-yashnab turgan er-xotin bilan : “Dinga qarshi kurash – *sotsiolizm* uchun kurash”, undan keyingilarning barida qurol, qurol, qurol... Muallif hozirga kelib eskirgan so‘zlarni neologizm sifatida qo‘llash orqali XX asrning birinchi choragiga oid davrni gavdalantirgan. Ushbu leksemalar roman mohiyatini konkretlashtirishda muhim ahamiyat kasbetadi. Asar matnida bunga ko‘plab misollar mavjud.

Shuni aytib o‘tish joizki, Isajon Sultonning “Ma‘suma” romani nafaqat badiiyg‘oyaviy tomonlama, balki kompozitsion-strukturaviy tomonlama ham adabiy me’zonlarga to‘laligicha mos keladigan, mazmun-mohiyat va tasvir vositalari o‘zaro uyg‘unlashgan roman hisoblanadi. Asar hozirgi zamonaviy adabiyot namunasi bo‘lsa-da, unda o‘tgan asrnining dolzarb muammosi qalamga olingan.

“Ma‘suma” – shunchaki bir o‘zbek aktrisasing hayoti yoritilgan roman emas. Aksincha, muallif Ma‘sumaning kundalik hayoti tasvirida 1930-yillardagi aholining ijtimoiy ahvolini ko‘rsatib bergen. Asar o‘zbek ayollarining qatag‘on yillaridagi sabr-bardoshi, metin irodasi, jasorati sha‘niga bag‘ishlangan. “Ma‘suma” romani ko‘z bilan emas, yurak bilan o‘qiladigan nodir yodgorlikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2022-yil.

2. Isajon Sulton. Ma'suma. –T.: Adabiyot, 2022-yil.
3. Fayzullayeva , O. . (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 55–60. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/25466>
4. Fayzullayeva, O. X. (2020). Diversity in writing Uzbek sonnets. *Theoretical & Applied Science*, (4), 627-633.
5. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 332-340.
6. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. *European Scholar Journal*, 2(4), 233-236.